UO‘K 17.022:323(575.1)

MILLIY VA GLOBAL MA’NAVIYAT UYG‘UNLASHUVINING IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

F.X. Yuldasheva

Maqolada milliy va global ma’naviyatning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘zaro dialektik ta’siri, milliy va global ma’naviyatni uyg‘unlashtirishning zarurati va imkoniyatlari nazariy o‘rganilgan. Muallif milliy va global ma’naviyatni uyg‘unlashtirish muammosini yoshlarning aksiologik tarbiyasi, bu jarayonda ta’lim tizimining roli, jamiyatda axborot va axborotlashuvning dolzarblik kasb etib borishi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘liqlikda tahlil etgan.

Kalit so‘zlar: *milliy ma’naviyat, global ma’naviyat, milliy va global ma’naviyatning uyg‘unlashuvi, ma’naviy ong, milliy va global ong, inson salohiyati, ta’lim tizimi*.

В статье теоретически изучаются особенности национальной и глобальной духовности, их диалектическое взаимовлияние, необходимость и возможности гармонизации национальной и глобальной духовности. Автор анализирует проблему гармонизации национальной и глобальной духовности в контексте аксиологического воспитания молодежи, роль системы образования в данном процессе, актуализации информации и информатизации и осуществляемой модернизации в Узбекистане.

Ключевые слова: *национальная духовность, глобальная духовность, гармонизация национальной и глобальной духовности, духовное сознание, национальное и глобальное сознание, потенциал человека, система образования.*

KIRISH

Ma’lumki, jamiyatda sodir bo‘layotgan har qanday obyektiv hodisa subyektning ongli faoliyati orqali amalga oshadi. Ma’naviyat esa subyektning olamga bo‘lgan munosabatini va hayoti mazmunini anglatuvchi, muntazam boyib boruvchi ichki omildir. Har qanday ijtimoiy hodisaning amalga oshishi, mohiyati hamda natijalari insonning ma’naviy dunyosiga bog‘liq. Chunki har qanday iqtisodiy qonunlar ma’naviy qonunlar bilan uyg‘unlashgan tarzdagina amalga oshadi.

Ma’naviy ishlab chiqarish g‘oyalar, nazariyalar, ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy qoidalar, ma’naviy tasavvurlar, dunyoqarash va ideallar ishlab chiqarishdan iborat. Ma’naviy ishlab chiqarish cheksiz bo‘lib, u, iqtisodiy ishlab chiqarishdan farq qilgan holda, to‘xtab qolmaydi va jamiyatning barcha a’zolari uning iste’molchilari bo‘lishlari mumkin. Iqtisodiy va ma’naviy sohalar o‘zaro bog‘liqlikda teng taraqqiy etganda, jamiyat har tomonlama yuksaklikka erishadi. Har qanday milliy ma’naviyat tarixiy davrda yuz berayotgan hodisalarning ta’sirini o‘zida aks ettiradi.

Milliy ma’naviyatning yangicha demokratik qadriyatlarni muntazam o‘zlashtirib borishi – globallashuvning talabi. Bu narsa ma’naviyat tizimining ham o‘zgarib, zamonga moslashib borishiga olib keladi. Bu mantiqan to‘g‘ri. Asosiy masala – global ma’naviyat va milliy ma’naviyatning uyg‘unlashuvini ta’minlash masalasidir.

MATERIAL VA USULLAR

O‘zbekistonda amalga oshib borayotgan modernizatsiya jarayonining iqtisodiy-texnologik va ilmiy asoslari ma’lum. Buning ma’naviy asoslari ham muhim omil bo‘lib, uning ahamiyati iqtisodiy omildan kam emas. Chunki iqtisodiy modernizatsiyani o‘ziga xos ma’naviy ong va unda aks etadigan ma’naviy qadriyatlarning tashuvchisi bo‘lgan subyektlar amalga oshiradi. Ular iqtisodiy faoliyatini shaxsiy axloqiy tamoyillari, diniy, ilmiy, siyosiy va huquqiy dunyoqarashi asosida amalga oshiradilar, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirib boradilar. Subyektlarning amaldagi xatti-harakatlarini ularning ma’naviy dunyoqarashi belgilaydi. Bir vaqtning

o‘zida subyektlar aytib o‘tilgan jarayonlarning obyekti ham hisoblanadilar.

Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi global siyosat va global madaniyatni olib keladi. Globallashuvni insonlar manfaatiga xizmat qilishga yo‘naltirish uchun bu jarayon dinamikasini samarali tartibga solib turish va uning, jumladan, ma’naviyatga ta’sirini ongli boshqarish muammosi yuzaga keladi. Globallashuv natijasida ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalarning tarqalishi, xalqaro huquq qoidalarining tan olinishi va ularga amal qilinishi, boshqaruvning huquqiy-demokratik asosga ko‘chirilishi kabi hodisalar, albatta, ma’naviyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu sohada kirib kelayotgan innovatsiyalardan foydalanish jamiyat kelajagiga, yoshlar ijtimoiy ongiga ta’sir etadi. Demak, globallashuv ta’siri ostida ma’naviyat ijtimoiy taraqqiyot talablari va ehtiyojlariga javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘lib boradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turli davrlarda milliy va global ma’naviyatning o‘zaro ta’siri davr ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshgan, o‘ziga xos qadriyatlar tizimi ustuvor hisoblangan. Ular davr xususiyati va ruhiyatini belgilab bergan. Tarixiy davrlarda turli avlodlar ma’naviyati boshidan boshlanmaydi, u o‘tgan avlodlar madaniy-ma’naviy merosiga asoslanadi. Insonning antrogenetik, biologik taraqqiyoti o‘tgan ajdodlar bilan bir xil bo‘lishi mumkin, lekin sotsiogenetik taraqqiyoti avlodlarning madaniyati, ma’naviyati va qadriyatlari asosida kechadi. Har bir avlod ularni ko‘paytirib, yangilab boradi. Ana shu asosda milliy ma’naviy ehtiyojlar qondirilib boriladi. Aks holda jamiyatning ma’naviy salohiyati davr talablariga javob bera olmay, uning o‘zini rivojlantirish va tashkillashtirish qobiliyati pasayib ketishi mumkin.

Globallashuv davrida axborot va kommunikativ texnologiyalarning taraqqiyoti milliy va global ma’naviyat munosabatlari jarayonini yanada tezlashtirdi, davlatlararo va millatlararo chegaralarning “yuvilib ketishi”ga olib keldi. Dunyoning demokratlashib borishi natijasida “milliy hudud”ning ahamiyati yo‘qolib borayotgani aniq. Davlat chegaralari avvalgidek tushunilmaydi. Iqtisod liberalizatsiyasi, ochiqligi, siyosiy demokratizatsiya, milliy chegaralar ahamiyatining yo‘qolib borishi kabilar o‘zaro bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlardir. Ular asosida ulkan baynalmilal kommunikatsiya tizimlari shakllandi. Bu tizimlar global ma’naviyatning milliy ma’naviyatga ta’sirini yanada kuchaytirib yubordi. Hozirgi kunda internetning tezligi va ishlash tartibi ko‘plab muammolarni hal etmoqda.

G‘arb ijtimoiy ongiga xos bo‘lgan qonun ustuvorligi xususiyati inson erkinligini himoya qiladi. Axloqiy va huquqiy ongning ma’naviyat tizimida uyg‘unlashuvi progressiv hodisa bo‘lib, u milliy ma’naviyatning demokratik xususiyatlarini rivojlantiradi. “G‘arb huquqiy ongi va madaniyatidagi qonun ustuvorligi, fuqarolar tengligi, demokratiya va huquqiy davlat tamoyillari amaldorlarning o‘zboshimchaligini, davlat idoralari va huquq zo‘ravonligini cheklaydi. Inson huquqlarini (korxona va tashkilotlar huquqlarini ham) yuzaga chiqarishda fuqaro va davlat munosabatlarini tartibga solishda o‘zaro tiyib turish mexanizmini vujudga keltiradi” [1. B. 51].

Globallashuv ziddiyatli jarayon ekanligi ma’lum. Globallashuv faqat umumiy imkoniyatlarni emas, global xavf-xatarlarning ham umumiyligini anglatadi. Hozirgi davrda “megajamiyat”, “jahon bozori”, “jahon savdosi”, “dunyo fuqarosi”, “global fuqaro”, “kiberinson”, “kiberavlod”, “kiberemigrant”, “ko‘p variantli supersiyosat” kabi tushunchalarning paydo bo‘lishi bejiz emas.

Oila, ota-onalar va farzandlar munosabati kabi masalalarda erkinlikning keng targ‘ib qilinishi, feminizmning rivojlanishi bu sohada o‘ta zamonaviy tasavvurlarning shakllanishiga olib keldi. Shunga ko‘ra, kishilarda internet madaniyati va ma’naviyatini shakllantirish, OAV orqali yetib kelayotgan axborotni to‘g‘ri qabul qilish va mustaqil mulohaza qila olish orqali internet va OAV salbiy ta’sirini yumshatish kabi masalalarni hal etish zarurati paydo bo‘ldi. Bugungi muammo shunchaki global madaniyat va ma’naviyatning ta’sirigina emas, uning subyektlari unumli foydalanayotgan zamonaviy kommunikativ texnologiyalarning milliy ma’naviyatga ta’siri muammosi hamdir.

Milliy va global ong, milliy va global ma’naviyat bir-biriga solishtirilganda, ularning salohiyati turlicha ekanligini anglaymiz. Milliy ong va milliy ma’naviyatning tarixi va ildizlari qadimiy, salohiyati global ong va global ma’naviyatnikidan

kuchliroq. Faqat milliy ma'naviyatning milliy-axloqiy me'yorlari qat'iyroq. Global ma'naviyat esa turli milliy ma'naviyat elementlaridan tashkil topgan har xillik asosida qurilgan bir xillik mohiyatiga ega bo'lib, ochiq tizim hisoblanadi. Globallashuv natijasida tarqalayotgan ma'naviyatda erkinlik, demokratiya, liberallik, tolerantlik, innovatsiya elementlarining ko'proq aks etishi hisobiga ba'zan u milliylikdan ustun keladi. Shu sabab global ma'naviyat tarqalishining texnologik imkoniyatlari kengroq, dinamikasi ham ancha kuchliroq bo'lib, unga kishilar hozirgi kunda ko'proq ergashmoqdalar.

Global ma'naviyat ko'proq sinkretik, plyuralistik xususiyatga ega. U o'zini oqlamay qolgan, anaxronik, ya'ni o'z umrini yashab bo'lgan axloqiy qoidalardan, avtoritar boshqaruv usuliga xos bo'lgan ayrim odatlardan bemalol voz kecha oladi. Milliy ma'naviyat esa, bundan farq qilgan holda, o'zining qat'iy me'yorlariga asoslanadi. U milliy bo'lgani uchun ham nisbatan yopiq, konservativ tizimdir. Shunga ko'ra, bu ikki xil ma'naviyatni uyg'unlashtirish – ancha murakkab masala. Globallashuv millatlar va davlatlar o'rtasida chegaralarning "yuvilib ketishi" bo'lganidek, an'anaviy axloqiy me'yorlar chegarasini ham buzib, axloqni o'ta erkinlashtirib yubordi.

Global madaniyat va ma'naviyatga ko'proq yoshlar tortiladi. Katta yoshli kishilarda milliy ma'naviy ong kuchliroq. Global ma'naviyatning ta'siri haqida gapirilganda, bugungi kunda yoshlarga oilaning ta'siridan ko'ra ijtimoiy muhitning ta'siri kuchayib borayotganligini, bilim olishga intilishning nisbatan susayganligi natijasida ma'naviy emas, moddiy qadriyatlarning yoshlar ijtimoiy ongida ustuvor bo'layotganligi kabi omillarni hisobga olish zarur. Oilaning ta'sir elementlari jamiyat, jamoaning ta'sir elementlariga nisbatan kamayib bormoqda. Bunga sabab ota-onalar, yaqin qarindoshlarning o'ta bandligi, yashash va faoliyat sur'atlarining tezlashib borayotganligi, ba'zan uzoq vaqtgacha ota-ona va farzandlarning alohida yashayotganligi va hokazolardir. Bu masalaga O'zbekiston Prezidenti alohida e'tibor qaratdi: "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir" [2. B. 103].

Milliy ma'naviyat tizimida immunitet vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan elementlardan to'g'ri foydalanish, ularni bog'chadan boshlab bolalar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, g'oyalar haqida gap ketganda, uning milliy ruhga ega bo'lishi muhim, chunki yot g'oya millat ruhiga mos tushmasdan yemirilib ketishi mumkin. Shunga ko'ra, milliy g'oyani ko'proq targ'ib qilish talab etiladi.

Hozirda globallashuvning eng faol subyektlari – rivojlangan davlatlarning aholisi dunyo aholisining 19–20 % ini tashkil etgan holda, jahon savdosining ham 70 % dan ziyodi ularga to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun globallashuv muammolar bilan birga katta imkoniyatlar ham yaratadi, lekin endi ular iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish va chet el investitsiyalarini ko'proq olib kelish hisobiga ko'tarilishlari mumkin. Iqtisodiy globallashuv jamiyat a'zolarini moddiy manfaatlar asosida birlashtira oladi. Bu nuqtayi nazardan globallashuv va uning ma'naviyati o'zaro yaqinlashuv jarayonlarini tezlashtirgan holda birlashtiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Globallashuv sharoitida iqtisodiy taraqqiyot uchun imkoniyatlar kengayishi natijasida iqtisod yuksaklikka erishishi mumkin. Unga mos ravishda ma'naviyat ham taraqqiy etishi zarur. Chunki ma'naviyat omilining iqtisod omilidan uzoqlashib ketishi uning inqiroziga sabab bo'lishi mumkin. "Ma'naviyat iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi muhim omillardan hisoblansa ham, uning o'zi iqtisodiyot bilan uzviylikda yuqori cho'qqilarga ko'tarilishi mumkin. U iqtisodiy turg'unlik davrida ham rivojlana olsa-da, uning haqiqiy yuksaklikka ko'tarilishi iqtisodiy o'sish, rivojlanish davrida yuz beradi" [3. B. 89–90].

Ma'naviy omillarning amaliy natijasi va samaradorligi moddiy omillar taraqqiyotiga bog'liq. Bu ikki xil omil mos tushganda jamiyat yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, G'arbda protestantlik g'oyalarining tarqalishi hamda foyda olish uchun qilingan halol mehnatning din yo'lidagi mehnat sifatida e'tirof etilishi Yevropada ulkan iqtisodiy taraqqiyotga zamin bo'ldi. Bu haqda ingliz sotsiologi Maks Veber aytib o'tgan [4].

Professor I.Soifnazarov naqshbandiya tariqatining ahamiyati to'g'risida quyidagicha fikr

bildiradi: “Naqshbandiya tariqati bu olam tashvishlari, tiriklik muammolari bilan shug‘ullanish ayb emasligini asoslab berdi. Ko‘ngil Xudoda bo‘lib, moddiy dunyo tashvishlari zo‘r ishtiyoq bilan hal etilsa, buning foydasi savobga aylanajagi bu tariqatning ma’no-mohiyatini belgilar edi. Bu tariqat o‘z ma’no-mohiyatiga ko‘ra G‘arbdagi protestantlik oqimiga o‘xshab ketardi. Lekin Movarounnahr hududida moddiy ishlab chiqarishning yuksak rivojlanmagani, xalqning aql-zakovati asosan ruhiy-ma’naviy ishlab chiqarish – badiiy adabiyot, ilm-fan, madaniyat, diniy ilmlar rivojiga sarflangani bois, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish (ya’ni moddiy ishlab chiqarish) vositalari ustuvor mavqega ko‘tarilmagani sababli naqshbandiylik g‘oyalari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini o‘zgartirolmadi” [5. B. 70–71]. Bundan xulosa shuki, ma’naviy taraqqiyot va xalqning ma’naviy salohiyati moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti, iqtisodiy omillar bilan o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlaganda jamiyat jadal taraqqiy etadi.

Jamiyatda modernizatsiya jarayonlari inson kapitali va inson salohiyati masalalarini ham dolzarb qilib qo‘ydi. Bugungi kunda inson potensiali masalasi ijtimoiy-falsafiy fanlar sohasida ko‘p muhokama etilayotgani ham bejiz emas. Chunki inson potensiali uning faoliyatini, pirovardida jamiyatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarining samarasini belgilaydi. Hozirda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari xalqning ma’naviy salohiyatini yuzaga chiqarish va uni qo‘llash uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Har qanday milliy yangilanish ma’naviyatga asoslanadi. Chunki ma’naviyat millatning etnostatusini belgilovchi omillardan biridir. Ma’naviy qadriyatlar anglangan, jamiyat va inson uchun qadrli bo‘lgan ma’naviy elementlar bo‘lib, ular jamiyatning yangilanish jarayonida ulkan ahamiyat kasb etadi. Demak, bu jarayonga xizmat qiluvchi omillarni qadriyatga aylantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Masalan, shaxs taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan axloqiy, huquqiy, siyosiy va boshqa bilimlarning muhimligini tushuntirish yoki innovatsiyalarning qadriyatga aylanishi zarurligini kishilar ongiga singdirish singari harakatlar shular jumlasidandir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvorligidan kelib chiqib, bu sohada ma’naviy tarbiyaning samarali texnologiyalari yangi pedagogik texnologiyalar qatoridan o‘rin olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada o‘ta zamonaviy pedagogik texnologiyalarga berilib ketish ham maqsadga muvofiq emas. Albatta, ular ta’limni rivojlantirish nuqtayi nazaridan zarur, lekin uning milliy-ma’naviy asoslari saqlab qolinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Globallashuvning salbiy jihatlariga qarshi tura olishi mumkin bo‘lgan tizim – ta’lim tizimidir. Rivojlanayotgan davlatlar uchun ta’lim siyosati muhim bo‘lib, uni globallashuv talablari va milliy ehtiyojlar asosida amalga oshirishlari zarur. Ta’lim tizimi orqali inson ham ilmiy, ham ma’naviy tarbiya olish, salohiyatini rivojlantirish hamda uni to‘g‘ri realizatsiya qila olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dunyo bozorining talablari shunchalik tez o‘zgarmoqdaki, hozirda sanoatlashtirish emas, innovatsiyalar asosida taraqqiyot muhim bo‘lib, global bozorda raqobatbardosh mutaxassislar katta rol o‘ynamoqdalar. Ayrim mutaxassislarning fikricha, ta’lim tizimi yuksak taraqqiy etayotgan davlatlarda ko‘proq e’tibor bilimni qo‘llashga emas, uni yig‘ishga qaratilgan. Bugungi ta’lim dasturlari asosida o‘qitilayotgan fanlarning ayrimlari qisqa davr ichida o‘z dolzarbligini yo‘qotib, farzandlarimizning bugun egallagan hunarlari va mutaxassisliklari raqobatga javob bera olmay qolishi mumkin. Chunki hozirda bilimning foydalilik va samaradorlik muddati muammosi yuzaga kelmoqda. OTMni tamomlagan yosh mutaxassislar ko‘p hollarda o‘z sohasi bo‘yicha faoliyat olib bormay, yangi kasb egallashga majbur bo‘ladilar. Ba’zi hollarda ta’lim olishga inson hayotining katta qismi, hatto butun umri sarf etilmoqda.

Hozirgi mutaxassis dunyoda bo‘lib o‘tayotgan hodisalarni tahlil qila oladimi, u qanday fikrlaydi va qanday muammolarni hal qila oladi, o‘z ko‘nikmalari va bilimlarini, axborotni boshqalarga qanday yetkazadi? U yetkazayotgan bilim va axborotning foydalilik muddati qancha? U bu kabi savollarga va zamon talablariga javob bera oladimi? Bunday masalalar yoshlar ongida olamni bir butun tushunishni shakllantiradigan bilimni tashkil etish va uni boshqarish tizimini ishlab chiqish zururligini dolzarb qilib qo‘yadi [6. B. 69].

Hozirda dunyo ta’lim tizimida quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Texnologiyalar taraqqiyoti va ularning ishchi o‘rinlariga ta’siri.

2. Aholining o‘rtacha yoshi ortib borishi (ayrim davlatlarda, masalan, Yaponiya, Koreya, Germaniya, Rossiya va boshqalarda tug‘ilish soni kamayishi hisobiga aholining o‘rtacha yoshi ham yuqorilab bormoqda).

3. Ta’limning global zamonga, davr talablariga moslashib borishi natijasida an’anaviy ta’limning o‘zgarib borishi. “Zamonaviy ta’lim xalqaro bo‘lishi va universitet ta’limi ko‘p xillik madaniy taraqqiyotning asosida turishi zarur, turli-tuman madaniyatga asoslangan ta’lim esa taraqqiyotning axborot xavfsizligini ta’minlashi mumkin”, – degan fikr dunyo hamjamiyatini birlashtiradi. Chunki u hodisani boshqa inson pozitsiyasi, turli madaniyatlar, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nuqtayi nazaridan baholash qobiliyatini shakllantiradi. Bo‘lajak mutaxassisning madaniy o‘z-o‘zini anglashi va uning shaxsini boyitishga xizmat qiladigan ko‘p madaniyatli ta’lim muhiti yaratilishi lozim” [7. B. 216].

Global dunyoda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab yetishtirish uchun O‘zbekistonda ta’lim tizimini kelajakka moslashtirish, dolzarb kasbiy yo‘nalishlarni ochish, uning dunyo bozorida raqobatbardoshlik salohiyatini oshirish kabilar orqali ta’limning samaradorligini ta’minlash talab etiladi. Ana shunda mamlakatda va dunyoda mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda zarur mutaxassislar tayyorlanadi. Bu borada birinchi vazifa ta’lim sifatini ta’minlashdan iborat bo‘lib, u nafaqat bugungi dolzarb muammolarni hal etishi, balki ana shunday muammolar kelib chiqishining oldini olish uchun intilishi, ta’limni o‘qitishga emas, mustaqil ta’limga yo‘naltirish orqali o‘qishning samaradorligini oshirish zarur. Chunki hozirda talaba yoshining uzayib borishi hodisasi yuzaga kelib, ba’zan 30–40 yoshdagi talabalarni ham uchratish mumkin.

Ta’lim tizimi yoshlarni global fikrlashga, shunchaki mutaxassisni emas, liderlarni tayyorlashga, innovatsiyani qo‘llab-quvvatlashga yo‘nalgan bo‘lishi zarur. Bu sohada “ta’lim xizmatlari bozori”, “raqobatbardosh ta’lim” tushunchalari tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Ta’lim tizimi insonni umrbod o‘rganishiga qaratilib, u doimiy uzluksiz ta’lim sifatida namoyon bo‘lib bormoqda. Bular davlatdan ta’lim sohasiga ajratiladigan mablag‘ni keskin oshirish va bu mablag‘ning katta qismini ta’lim muassasalarining zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va boshqalar bilan ta’minlashga sarflashni tashkil etishni talab etadi.

Ta’lim tizimi ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi sifatida iqtisodiy taraqqiyotning hamda modernizatsiya va innovatsiyaning ilmiy-texnologik bazasiga aylandi. Innovatsiyalar asta-sekin jamiyat ma’naviy qadriyatlar tizimining muhim elementi bo‘lib bormoqda. Hozirda ta’lim muassasalarining manzillari ahamiyatga ega emas. Ta’limni onlayn tizimida tashkil etgan ta’lim muassasalarini innovatsion ta’limni amalga oshiruvchilar deyish mumkin. Globallashuv bilim olish va uni o‘zlashtirish muammolarini innovatsion usullarda hal etmoqda: birgina masofaviy ta’limning imkoniyatlari bunga misol bo‘ladi. Internet seminarlar va konferensiyalar, elektron adabiyotlarning keng tarqalayotganligi kabilar ta’lim sohasiga globallashuv olib kelgan innovatsiyalar hisoblanadi. Mutaxassisning yaxshi bilimga ega bo‘lishi ijtimoiy mobillikning shartiga aylandi. Ko‘rinib turibdiki, biz bugun bilimning ma’naviyat tizimidagi barcha elementlardan ustunligi hodisasiga duch kelmoqdamiz. Ma’naviy sohani globallashuvning salbiy jihatlaridan himoya qilishi mumkin bo‘lgan ta’lim tizimining o‘zi ham transformatsiyaga uchramoqda.

Ta’limda bilim bilan bir qatorda axborot muhim statusga ega bo‘ldi. Axborot taraqqiyotning omiliga aylandi. Axborotni to‘plash, o‘zlashtirish, uni qayta ishlash va realizatsiya qilish, undan foyda olish global ma’naviyatning xususiyatlaridan biriga aylandi. Bilim bilan bir qatorda axborotni o‘zlashtira oladigan shaxs yuksak taraqqiy etgan ma’naviyatli shaxs sifatida tushunilmoqda. Demak, ijtimoiy hayot dinamikasi bu omillarni birinchi o‘ringa qo‘ymoqda. Endi bilim va axborotni qo‘llash va innovatsiyalar yaratish muhim bo‘lib qoldi. Bular shaxs ma’naviy taraqqiyoti imkoniyatlarining kengayib borishi bilan birga, bozor iqtisodiyoti tamoyillari ta’lim tizimiga tobora ko‘proq joriy etilayotganligini anglatadi.

Hozirgi globallashuv zamonida o‘z milliy identifikatsiyasini saqlab qolishga intilayotgan barcha subyektlar ko‘p madaniyatli ta’lim tizimini tan olib, unga moslashib bormoqdalar. Demak, ta’lim tizimini globallashuv chaqiriqlari, mehnat bozorining ehtiyojlari hamda milliy taraqqiyotning shartlari asosida kelajakka va muntazam ravishda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy hayot talablariga moslashtirish strategik ahamiyatga

ega. Bunday vazifani amalga oshirish iqtisodiy va innovatsion taraqqiyotni ta’minlash bilan birga shaxsning ijtimoiy-ma’naviy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida ma’naviy yangilanish jarayoni bir tomondan global ma’naviyat va ikkinchi tomondan, milliy ma’naviy qadriyatlarga asoslanadi. Ma’lumki, global ma’naviyat demokratiya, qonun ustuvorligi, siyosat, ilm-fan, yangi kommunikativ tizimlarga asoslansa, milliy ma’naviyatda tarixiy milliy qadriyatlar, din, milliy axloqiy qoidalar va an’analar kabilar ustuvor hisoblanadi. Ma’naviyat hamda demokratik qadriyatlar, qonun ustuvorligining uyg‘unlashuvi global ma’naviyatning salbiy ta’siridan himoyalanishning yo‘lidir. Progressiv global ma’naviyat va milliy ma’naviyatning bir-biriga qarshi qo‘yilishi yoki ularni ajratib ko‘rsatish to‘g‘ri emas. “Axloqiy, diniy va ilmiy qadriyatlarni bir-biridan ajratish yoki ularni bir-biriga qarshi qo‘yish yaramaydi. Ulardan qay birining ustuvorligi konkret tarixiy sharoitda xalq ma’naviy salohiyatining darajasini aks ettiradi, xolos” [8. B. 87].

Global ma’naviyat kelajakka qaratilgan bo‘lsa, milliy ma’naviyat ko‘proq tarixga, millat ma’naviy merosiga qaratilgan. Birinchisi modernizatsiyaga, ikkinchisi konservatizmga asoslanadi. Taraqqiyot uchun modernizatsiya ham, sog‘lom konservatizm ham birdek zarur. Chunki modernizatsiya erkinlik va islohotlarni, sog‘lom konservatizm va traditsionalizm barqarorlikni ta’minlaydi. Global ma’naviyat keng imkoniyatlarni olib keladi va milliy ma’naviyatning rivojiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan birining ijtimoiy hayotda mutlaqlashuvi, biridan ikkinchisining o‘ta ustun bo‘lishi to‘g‘ri emas. Milliy va global ma’naviyatning kesishgan nuqtalarida ularni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ma’naviy yangilanish jarayonida tarixiy ma’naviy qadriyatlarni asrash bilan birga, hozirgi davr uchun dolzarb bo‘lgan va kelajakka qaratilgan global ma’naviy qadriyatlarning ham rivojini belgilaydi. Bunday yondashuv samarali bo‘lib, u o‘tmishga yopishib olish yoki o‘ta zamonaviy ma’naviy qadriyatlarga berilib ketishning oldini oladi.

Bu jarayonda yana ma’naviyatning barcha elementlari va shakllari o‘zaro uyg‘unlashgan holda mavjud bo‘lishiga erishish muhim bo‘lib, bu narsa jamiyatning ma’naviy barqaror taraqqiyotini ta’minlaydi. Unda, masalan, dinning ustun bo‘lib, jamiyatning dunyoviylikdan yiroqlashuvi yoki fanning ustun bo‘lib, jamiyat ko‘proq texnologik taraqqiyot yo‘liga og‘ib ketishining oldi olinadi.

Milliy va global ma’naviyatning qaysi biri insonga ko‘proq ta’sir qilishiga e’tibor qaratsak, inson kundalik hayotda ko‘p duch keladigan ma’naviy elementlarning ta’siri kuchliroq ekanligini anglaymiz. Axloq, din, san’at elementlariga inson kundalik hayotda muntazam duch keladi. Fan, siyosat va huquq haqida bunday deya olmaymiz. Chunki fan va siyosat bilan hamma birdek shug‘ullanmaydi. Huquq ham barchaning ma’naviy ongida bir xil aks etmaydi. Bularga globallashuvning ta’sirini kutib o‘tirmasdan, ularning milliy xususiyatlarini saqlab qolishga intilish muhim hisoblanadi.

Global ma’naviyat tizimida bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan elementlar ko‘p. Ular bilan o‘zaro ta’sirda milliy qadriyatlar va ma’naviyat ba’zan global ma’naviyat ta’siriga javob bera olmay qoladi. Aslida milliy ma’naviyat o‘zini himoya qilishi uchun global ma’naviyatdan himoyalanishi ma’qul, lekin bu holda uning taraqqiyoti xavf ostida qoladi. Chunki global ma’naviyat ilg‘or elementlarining ta’siri milliy ma’naviyatning ham rivojlanishi va salohiyatining ortib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek, har qanday tizim o‘zini boshqalari bilan solishtirib, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lganda, o‘zini oqlamay qolgan keraksiz elementlaridan voz kechib, yangilarini qabul qilishi natijasida taraqqiy etadi.

Global ma’naviyat ma’naviy ongning olamni ko‘proq hissiy qabul qilishiga asoslanib, erkinlik, individualizm, komformizm, gedonizmga yo‘nalsa, milliy ma’naviyat ma’naviy ongning asosan ratsional darajasiga asoslanib, tarixiy qadriyatlarni e’zozlash, ajdodlar ruhi, ota-ona va oilani e’zozlashga, burchga yo‘naltirilgan. Burch qisman erkinlikni bo‘g‘adi va bu insonning mohiyatiga ziddir. Chunki bunda insonga mas’uliyat, javobgarlik, majburiyat yuklansa, global ma’naviyat, aksincha, erkinlik, innovatsiya, qulaylik, komfortga asoslangan. Shunga ko‘ra uning insonga ta’siri imkoniyatlari ham kengroq. Chunki ijtimoiy ong uchun ham, ma’naviy ong uchun ham aqliy yondashuvga nisbatan hissiy yondashuv osonroq.

G‘arb va Sharq ma’naviyatining farqi shundaki, birinchisining o‘zagi demokratiya

bo‘lsa, ikkinchisiniki oilaviy, milliy qadriyatlar, milliy an’analar, urf-odatlar hisoblanadi. G‘arb ko‘proq iqtisodiy globallashuvni tanlamoqda. Iqtisodiy globallashuv turli jamiyatlarga mansub bo‘lgan kishilarni birlashtira oladi. Iqtisodiy globallashuvdan farq qilgan holda ma’naviy globallashuv jamiyat a’zolarini birlashtirish salohiyatiga ega emas. Ma’naviy globallashuv jamiyat a’zolarining turli qatlamlari, yoshlar va kattalarning ma’lum dunyoqarash yoki mafkura ostida milliy birlashuviga xalaqit beradi.

Ikki xil mohiyatga ega bo‘lgan ma’naviyatning bir-biriga mos tushuvchi plyuralistik va progressiv jihatlarini rivojlantirish orqali milliy ma’naviyatni himoya qilish va uni jamiyat milliy ehtiyojlarini qondirish tomon yo‘naltirish mumkin. Chunki global ma’naviyatning salbiy jihatlariga qarshi tura olishi mumkin bo‘lgan omillarning o‘zi ham globallashuv ta’siri ostida qolmoqda. Ularning qaysi biri bugun millat hayotida ko‘proq ahamiyatga ega, ularning qaysi xususiyatlarini rivojlantirish zarur, qaysilari mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida faol bo‘lishiga xizmat qiladi? Masalaga shunday yondashgan holda, ularning jamiyat va shaxs hayotidagi roli, yaratuvchilik salohiyati, ma’naviy yangilanishga qanchalik xizmat qilishi kabi jihatlari e’tiborga olinishi zarur. Bunday yondashuv milliy ma’naviyatni saqlab qolish bilan birga mamlakatning tobora demokratlashib borishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Turli millatlar ma’naviyatida ma’naviy an’analar, qadriyatlarning shakllari turlicha bo‘lsa-da, mohiyati bir xil. Turli milliy ma’naviyatni tashkil etuvchi elementlar va shakllar ham bir xil: axloq, din, fan, san’at, siyosat, huquq. Ularning tamoyillari ham o‘xshash: vatanparvarlik, gumanizm, tolerantlik, erkinlik va h.k. Demak, global ma’naviyatning ham ana shu tamoyillarga mos tushuvchi jihatlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, chunki ular barcha millatlar va mamlakatlarning ham ma’naviy ehtiyojlariga javob beradi. Albatta, tolerant milliylik, sivilizatsion milliylik globallashuv sharoitida muhim ahamiyatga ega. Lekin bunday xususiyatlar ham ma’lum me’yorlarda aks etishi lozim.

Aytib o‘tilgan muammolarni hal etishda jamiyatning ilg‘or qatlami – ziyolilar, ya’ni ma’naviy elita muhim rol o‘ynaydi. Ularning ma’naviy salohiyati katta ahamiyatga ega bo‘lib, bunday salohiyat ma’naviy qadriyatlarning qadriyatlilik darajasini saqlaydi, zarur qadriyatlar tanlovi va oriyentatsiyasini amalga oshiradi. Jamiyat taraqqiyotida faqat moddiy omillarning ustun bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Globallashuv talablariga javob berishning va unga moslashishning yo‘llaridan biri milliy intellektual salohiyatni rivojlantirishdir. Milliy intellektual salohiyat inson ma’naviy salohiyatining tarkibiga kiradi. U milliy ma’naviy taraqqiyot uchun ulkan manba vazifasini o‘taydi. Jamiyat tomonidan ana shunday salohiyatni yuzaga chiqarish va realizatsiya qilish uchun imkoniyatlarning yaratilishi strategik ahamiyatga ega.

Ko‘plab tadqiqotchilar globallashuv madaniyatning birxillashuviga olib kelishi haqida gapirmoqdalar. Bu fikrlarda jon bor, albatta. Ammo, bizningcha, globallashuvning bu jihati qisman mutlaqlashtirilmoqda. Ulkan madaniyat va ma’naviyatlarning turli-tumanligi sababli jahon ijtimoiy hayoti va madaniyatining birxillashuvi mumkin emas. Millat bor ekanki, uning ma’naviyati va o‘ziga xosligi saqlanib qoladi. Chunki milliylikning tarixi, ildizlari globallashuvnikiga nisbatan qadimiy, manbalari esa boyroq. Millat salohiyatida uning xususiyatlari va etnostatusini saqlab qoluvchi ijodiy kuchlar doim ham mavjud bo‘ladi.

Markaziy Osiyo bu hududda joylashgan bir necha mamlakatlarning manfaatlari kesishgan mintaqa bo‘lib, bu yerda etnik jihatdan o‘xshash bo‘lgan ko‘plab millatlar yashaydi. Ularning barqaror taraqqiyotini ta’minlash uchun mintaqada tinchlik va o‘zaro teng huquqli hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Aytib o‘tilganidek, O‘zbekistonning ham taraqqiyoti uchun jahon darajasidagi ulkan global munosabatlardan ko‘ra (albatta, ular ham muhim) yaqin qo‘shnilar bilan mintaqaviy global munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Demak, globallashuvning mintaqaviy shakliga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish, milliy suverenitetni saqlab qolish zarur.

Ma’naviyat globallashuvning salbiy jihatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Uning faqat iqtisodiy jihatlari yetakchi bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan holda, axloqiy elementlarini saqlab qoladi. Global ma’naviyat aslida milliy ma’naviyat elementlaridan tashkil topgan holda ko‘pchilikning manfaatlariga mos tushishi lozim. Global ma’naviyat asosida zamonaviy kommunikatsi-

yalar omili turibdi va u milliy ma’naviyatga ta’sir o‘tkazmoqda. Chunki milliy ma’naviyat davr ruhini o‘zida aks ettiradi. Turli davrlarda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, globallashuv ta’sirida ma’naviyatning u yoki bu elementlari ustuvor bo‘lishi mumkin. O‘rta asrlarda din bo‘lsa, hozirda ilm-fan, yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgan ma’naviy elementlar ustuvor hisoblanadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, globallashuvdan farq qilgan holda, ma’naviyat turli avlodlar hayotida yangidan boshlanmaydi. U milliy merosga asoslanadi. Faqat u davr ruhiga mos ravishda o‘zgarib boradi. Masalan, buyuk asarlar, san’at asarlari namunalari, musiqa kabilarning qiymati davr o‘tgan sari oshib boradi. Yangicha ma’naviy boyliklar va qadriyatlar eskilari negizida yaratiladi.

Globallashuv sharoitida jamiyatning barcha subyektlarini, ularning milliy ma’naviy salohiyatini uyg‘ota olish, ulardan foydalanish va to‘g‘ri yo‘naltirish jamiyatda ma’naviy birlikni saqlab qolishga imkon beradi. Bu jarayonda bajariladigan barcha vazifalar inson omiliga qaratilgan bo‘lib, uning iqtisodiygina emas, axloqiy va ma’naviy salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning natijalari shaxs omiliga bog‘liq. Shaxs omili jamiyatda bo‘lib o‘tayotgan jarayonlarning markazida bo‘ladi. Shaxs omili orqali jamiyat taraqqiy etgan. Shaxs yangilanish jarayonining harakatlantiruvchi omilidir. “Fuqarolik jamiyati rivojida iqtisodiy omilning o‘zi kamlik qiladi, albatta. Bu sohadagi yana bir zarurat – inson omilidir. Oliy jamiyat qurish uchun inson, eng avvalo, ehtiyojlarini chuqur anglamog‘i va ularni jamiyatda erkin ro‘yobga chiqarish malakasini egallamog‘i lozim. Zero, bunday jamiyat inson ehtiyojining barcha davrlardagidan ortishi va ularni ro‘yobga chiqarishga “chanqoq”lik ham behad kuchayishiga asoslanadi. Albatta, bunda subyektiv omil bilan birga obyektiv omil, ya’ni inson ehtiyojlari qondirilishi uchun imkoniyat yaratish ham nihoyatda muhim” [9. B. 10].

Globallashuvning iqtisodiy potensialiga ma’naviyat doim ham mos kelmaydi, aksincha, qarshi turadi. Madaniyat va ma’naviyat an’anaviy bo‘lgan joylarda, albatta, globallashuvning ta’siri kuchli emas. Moddiy boylik yaratuvchi iqtisodiy globallashuvning mexanizmi tezroq ishlaydi.

Hozirgi kunda globallashuvga intilgan dunyoning o‘zi globallashuv oqibatida ziddiyatga uchradi. Chunki global dunyoni boshqarish masalasi yuzaga keldi. Yirik davlatlar avvalgidek globallashuv jarayonida yetakchilik qila olmay qoldilar. Globallashuvning xususiyatlari unda ishtirok etayotgan subyektlarning katta-kichikligiga bog‘liq bo‘lmay qoldi. Masalan, Finlandiya – kichik mamlakat, lekin turmush darajasi yuqori. Yoki ayrim harbiy jihatdan kuchli davlatlar rivojlangan davlatlar qatoriga kirmaydi. Masalan, Shimoliy Koreya yadro quroliga ega davlat bo‘lsa-da, iqtisodiy jihatdan yuqori taraqqiy etmagan hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib AQSH qadriyatlari avvalgidek jozibador emas. Chunki globallashuv milliy qadriyatlarni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bunday qadriyatlar tizimida inson asosiy o‘ringa chiqib, uning hayoti, hayotining sifat darajasi bosh masala bo‘lib qoldi. Bunday ko‘rsatkichlarni belgilovchi davlat siyosatining samaradorligi, davlatning o‘z aholisini himoya qilib, uning potensialini yuzaga chiqara olish va realizatsiya qilishi uchun imkoniyatlar yarata olish qobiliyati, mavjud potensial bekorga sarflanishining oldini olish, uni saqlash, ko‘paytirish va avlodlarga yetkazib berish kabi muammolarning hal etilishi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Globallashuv va milliylikni solishtirganda, milliylikning imkoniyatlari cheklanganligini ko‘ramiz. Global madaniyatni boshqarish mumkin emas. Chunki uning foydasiga xizmat qilayotgan tuzilmalar ko‘p: OAV, moda, axborot texnologiyalari, internet va boshqalar kishilar ongiga global madaniyatning elementlarini majburan kiritishning ulkan imkoniyatlariga ega. Bunday texnologiyalarni cheklash ham mumkin emas, chunki unda jamiyatning boshqa sohalari orqada qoladi.

Bu jarayonga komformizm va gedonizm g‘oyalari, global madaniyatning yengilligi, yoshlar o‘rtasida bir xil turmush tarzining tez yoyilishi kabi omillar ham ijobiy ta’sir etadi. Millatlar bunday global madaniyat ta’siridan charchadilar. Ular o‘zining milliy o‘zaklariga, milliy ma’naviyat va an’anaviy qadriyatlarga qaytishni istaydilar.

Lekin globallashuvning elementlari inson ko‘p duch keladigan kundalik turmush tarzida, kundalik madaniyatda, xatti-harakatlarda bo‘lgani uchun uning ta’siri kuchliroq.

Shunga ko‘ra davlat, ta’lim tizimi va uning subyektlari ma’naviy tarbiyaning samarali usullarini qo‘llagan holda ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolishi mumkin. Demak, ma’naviyatga globallashuvning salbiy ta’siriga qarshi tura olishi mumkin bo‘lgan hamda jamiyatda ma’naviyat, demokratiya va globallashuv uyg‘unligini ta’minlovchi alternativ usullarni qo‘llash globallashuvning agressivligini kamaytiradi, uning ta’sirini cheklaydi. Hozirgi globallashuv chaqiriqlariga javob berib, uning alternativ yo‘llarini topa olish, globallashuv sharoitida yashashning o‘ziga xos modellarini taklif eta olish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab davrlarda milliy-ma’naviy potensialni to‘g‘ri yo‘naltirib, undan foydalana olish qobiliyati kabilar davlatlarning kelajagini belgilab beradi.

Shunday qoida bor: tarix obyektiv taraqqiyot qonunlariga bo‘ysunadiganlarni o‘zi bilan olib yuradi, qolganlarni sudrab yuradi. Albatta, globallashuvning og‘riqli ta’siriga ko‘z yumib bo‘lmaydi. Lekin mamlakat globallashuvdan yuz o‘girishi ham mumkin emas, qulay vaziyat yuzaga kelganda, undan faqat foydalanamiz, deb kutib o‘tirish ham noto‘g‘ri, chunki bunday vaziyat hech qachon yuzaga kelmasligi ham mumkin. Buning yagona yo‘li hozirgi xalqaro munosabatlarning barcha ishtirokchilari bilan birgalikda globallashuvning salbiy jihatlariga qarshi kurashish, unga mos ravishda iqtisodiy taraqqiyot, siyosat va ma’naviy hayotni tashkillashtirish orqali globallashuv imkoniyatlaridan maksimal foydalanishdan iborat [10. B. 26–27].

Adabiyotlar:

1. *Эркаев А*. Маънавиятнинг уч қонуни. Учинчи мақола // Тафаккур, 2017. – № 4. – Б. 48–54.

2. *Мирзиёев Ш*. Гўзал ва бетакрор ўлка. (Наманган вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ) // Китобда: Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

3. *Бегматов А*. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 150 б.

4. *Вебер М.* Избранные произведения. – Москва: Прогресс, 1990. – 808 с.

5. *Соифназаров И*. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 158 б.

6. *Барабанов О.Н., Лебедев М.М*. Глобализация и образование в современном мире // В кн.: Глобализация: человеческое измерение. – Москва: РОССПЭН, 2002. – 112 с.

7. *Писаренко В.И*. Инновационное развитие образовательных систем как основа модернизации высшего образования // “Актуальные проблемы глобалистики и геополитики”. Сборник научных трудов кафедры глобалистики и геополитики СФУ. – Красноярск: СФУ, 2012. – С. 216–224.

8. *Қамбаров А*. Жамиятнинг маънавий янгиланиши жараёнида илмий қадриятларнинг роли. Фалсафа фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006. 145 б.

9. Элни суяганни эл ҳам суяйди. Сиёсатшунос олим М.Қирғизбоев билан суҳбат // Тафаккур, 2017. – № 1. – Б.10–16.

10. *Кулагин В.М., Лебедев М.М., Мельвиль А.Ю*. Глобализация и развитие человека // В кн.: Глобализация: человеческое измерение. – Москва: РОССПЭН, 2002. – 112 с.

POSSIBILITIES AND PROSPECTS OF NATIONAL AND GLOBAL SPIRITUAL HARMONY

Farida Kh.Yuldasheva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 12-22.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: *national spirituality, global spirituality, harmonization of national and global spirituality, spiritual consciousness, national and global consciousness, human potential, education system.*

The article theoretically studies the specific features of national and global spirituality, their dialectical influence, the necessity and possibilities of harmonizing national and global spirituality. The author analyzed the problem of harmonizing national and global spirituality in connection with the axiological education of young people, the role of the education system in this process, the increasing relevance of information and communication in the society, and the modernization processes carried out in Uzbekistan. In these processes, issues such as innovative values entering through the educational system, changes in the axiological consciousness of young people were studied.

Globalization is a controversial process. It has positive and negative features at the same time. In order to direct globalization to serve the interests of people, it is necessary to effectively regulate its dynamics, to solve the problem of conscious management of its influence on national culture and spirituality. Globalization brings advanced values such as innovations, scientific achievements, new technologies, rules of international law, legal-democratic governance that serve spiritual development. They affect the future of the nation, the social consciousness of young people. As a result, spirituality will have the ability to respond to the demands and needs of social development.

The article compares national and global consciousness, national and global spirituality based on the method of analogy, and emphasizes that the potential of these phenomena is different. According to the author, national consciousness and national spirituality have an ancient historical basis, national moral standards are stricter, and their potential is stronger than global consciousness and global spirituality.

Global spirituality is an open system with the essence of uniformity formed on the basis of diversity, composed of elements of different national spirituality. Due to the greater reflection of the elements of freedom, democracy, liberalism, tolerance, and innovation in global spirituality, it sometimes surpasses nationalism. Due to the fact that the technological possibilities of the spread of global spirituality are wider, the dynamics and potential are also stronger, the number of followers is greater now.

Global spirituality is more syncretic, pluralistic in nature. He can easily give up moral rules that are unjustified, anachronistic, that is, they have lived their life, and some habits characteristic of the authoritarian management method. National spirituality is based on its strict standards. Because it is national, it is a relatively closed, conservative system. The challenge is to reconcile these two spiritualities and use their potential for the development and future of society.

References:

1. Erkayev, A. (2017) Ma'naviyatning uch qonuni. Uchinchi maqola [Three laws of spirituality. The third article]. *Tafakkur.* 4. Pp. 48-54.

2. Mirziyoyev, Sh. (2017) Go'zal va betakror o'lka. (Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi) [A beautiful and unique country. (Speech at the meeting with representatives of voters of Namangan region). In: *Buyuk kelazhagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz* [We will build our great future together with our brave and noble people]. Tashkent: O'zbekiston.

3. Begmatov, A. (2000) *Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi* [The Philosophy of Spirituality or the Creation of a New Philosophical System in the Works of Islam Karimov]. Tashkent: Sharq.

4. Weber, M. (1990) *Izbrannye proizvedeniya* [Selected works]. Moscow: Progress.

5. Soifnazarov, I. (2001) *Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat* [Spiritual maturity and political culture]. Tashkent: Sharq.

6. Barabanov, O.N., Lebedev, M.M. (2002) Globalizaciya i obrazovanie v sovremennom mire [Globalization and education in the modern world]. In: *Globalizaciya: chelovecheskoe izmerenie* [Globalization: The Human Dimension]. Moscow: ROSSPEN.

7. Pisarenko, V.I. (2012) Innovacionnoe razvitie obrazovatelnyh sistem kak osnova modernizacii vysshego obrazovaniya [Innovative development of educational systems as the basis for the modernization of higher education]. In: '*Aktualnye problemy globalistiki i geopolitiki*' [Actual problems of globalistics and geopolitics]. Collection of scientific papers of the Department of Global Studies and Geopolitics of SibFU. Krasnoyarsk: SFU. Pp. 216–224.

8. Kambarov, A. (2006) Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli [The role of scientific values in the process of spiritual renewal of society]. The Dissertation for the Candidate of Philosophy Sciences. Tashkent.

9. Qirg'izboyev M. (2017) Elni suyaganni el ham suyaydi [He who leans on the hand will be supported by the hand]. *Tafakkur.* 1. Pp. 10-16.

10. Kulagin, V.M., Lebedev, M.M., Melville, A.Y. (2002) Globalizaciya i razvitie cheloveka [Globalization and Human Development]. In: *Globalizaciya: chelovecheskoe izmerenie* [Globalization: the human dimension]. Moscow: ROSSPEN. Pp. 26-27.

Muallif haqida ma'lumot:

YULDASHEVA Farida Xo'jamqulovna – falsafa fanlari doktori, Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi professori. E-mail: adu_yuldasheva@mail.ru